

---

## MENING BIRINCHI USTOZIM

Bugun jamiyatimizda yuqori mavqeni egallagan, faoliyatida yuksak natijalarga erishayotgan, el-yurt orasida hurmat qozongan kishilar ko'plab topiladi. Ularga ham dastlabki saboqni birinchi o'qituvchi berganini unutmash kerak. Bayram munosabati bilan ana shunday insonlarning o'z ustozlari haqidagi fikrlarini bilishga qiziqdik.

**Zarifjon Umarov, tuman hokimi o'rinbosari:** - Bola qalbini tushunish uchun boladek bo'lish kerak, deyishadi. Marhum birinchi o'qituvchimiz Tojixon Yo'lchieva bola dunyosidan xabardor, o'zi ham boladek samimiy inson edi. O'z navbatida qat'iyati bilan ajralib turardi. 1-sinfga borganimizda o'qituvchimiz bizga shu savolni ko'p berardi: Katta bo'lsang, kim bo'lmoqchisan, qaysi kasbni egallamoqchisan? Bola emasmizmi, kimdir uchuvchi, yana kimdir harbiy, birovi shifokor bo'lish istagida ekanini aytardi. Ustozimiz esa tanlagan kasbimizdan kelib chiqib, qanday bilimlarni egallashimiz kerakligini erinmay tushuntirardi. "Yaxshi o'qisang, kelajakda yaxshi ishda ishlaysan, odamlar orasida obro'-e'tibor qozonasan", deya bizni doim ruhlantirgan.

**Otabek Madaminov, tuman hokimligi bosh mutaxassisi:** 1980 yili tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qadam qo'yanman. Marhum ustozimiz A'zamjon Homidov bizga muloyimlik bilan dars o'ta boshlaganini eslayman. U kishi darsda barchadan faollik talab qilardi. Hech kimni jazolamasdi. Turli yo'llar bilan fanlarga qiziqishimizni oshirardi. Bir so'z bilan aytganda, bolalarning tilini topardi. O'qituvchim tufayli menda aniq fanlarni o'rganishga ishtiyoq paydo bo'lgan. Bu esa kasb tanlashimda muhim rol o'ynadi. Oliy o'quv yurtini tamomlab, turli sohalarda faoliyat olib bordim. Erishgan yutuqlarimda ustozimning hissasi katta deb bilaman. Birinchi o'qituvchimizdagi talabchanlik tinimsiz o'qib-o'rganishimizga turtki bo'lgan. U kishi tartib-intizomni yaxshi ko'rardi. Hech kimga urishmagan, hatto qattiq gap ham aytmagan. Shu sababli ustozimizga hurmatim cheksiz.

**Diloromxon Dodoboeva, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi rahbari:** - 1980 yili 1 sinfga tumanidagi 29-umumiy o'rta ta'lim maktabiga borganman. Sinfda 25 o'quvchi bor edik. Bizni Birofila Solieva qabul qilib olgan. Ustozimiz menda avvaliga jahldordek taassurot qoldirgan bo'lsa-da, darslar davomida u kishining mehribon inson ekaniga amin bo'ldim. O'tilgan darslarni o'zlashtirishda ortda qolayotgan o'quvchilarga alohida vaqt ajratardi. Xullas, hech kim e'tibordan chetda qolmasdi. Kasbga sadoqat shu bo'lsa kerak. Birinchi o'qituvchimizning alohida xislati shundaki, u kishi o'quvchidagi yashirin qobiliyatni tezda payqay olgan va ushbu qobiliyatni yuzaga chiqarishga tinmay harakat qilgan. Ya'ni, o'quvchining istak-xohishlariga qanot bag'ishlagan. Ustozimizning astoydil mehnati samarasi o'laroq jamiyatga foydasi tegadigan ko'plab insonlar yetishib chiqdi. Shu sababli birinchi o'qituvchimizni doim e'zozlaymiz, ularga hurmat izhor qilamiz.

**Muqaddasxon BEKMIRZAEVA, tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i:** Birinchi ustozim Sharofiddin Mamadalevni o'z kasbining haqiqiy fidoyisi, deb bila man. Bizga nisbatan qattiqqo'l bo'lgan, bilim olishimiz uchun astoydil jon kuydirgan. Har gal sinfga barvaqt kelib olar, darsga alohida tayyorlanardi. Agar alifboning biror harfini yodlolmasak yoki to'g'ri yozolmasak, buning uddasidan chiqmagunimizcha, yaxshilab o'zlashtirmagunimizcha qo'ymasdi. O'zlashtirishi qiyin bolalarga a'lochilarni birlashtirardi. Hayotda doim birinchi bo'lishga intilish, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yib yashash kerakligini uqtirgan. Intizomni, har bir ishni o'z vaqtida bajarish kerakligini u kishidan o'rganganman, desam xato bo'lmaydi.

**Kozimjon TO'XTASINOV yozib oldi.**

2022-09-29 05:43:07